



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

SO‘ZBOSHI

Bugun o‘zbek tilining davlat tili maqomini kasb etganiga 35 yil to‘ldi. Ushbu muddat davr nuqtayi nazaridan qisqa vaqtni tashkil etsa-da, yurtimizda bu sohada keng ko‘lamli, ta‘bir joiz bo‘lsa, olamshumul ishlar amalga oshirildi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yilning 4-oktabrida imzolangan “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qaror ona tilimizning istiqboli va taraqqiyotini tamomila yangi bosqichga olib chiqdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining aynan o‘sha yili 21-oktabrda qabul qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining ilk satrlarida barchamizni ruhlantiruvchi quyidagi so‘zlarni o‘qiymiz: “Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma‘rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir”.

2020-yilning 10-aprelida esa O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi mamlakatimizda o‘zbek tiliga bo‘lgan e‘tiborning yana bir yuksak namunasi bo‘ldi.

Yangidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ayni davrdan o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish borasidagi islohotlar amalga oshirila boshlanishiga keng ko‘lam va tus berdi. Xususan, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoniga muvofiq “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”ning qabul qilinishi til siyosati borasida amalga oshiriladigan ishlarning kelgusi taraqqiyotini belgilab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 117-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi tashkil etildi. Bugungi kunda Markaz va uning 13 ta oliy ta‘lim muassasalarida tashkil etilgan hududiy bo‘linmalari Toshkent shahri, viloyatlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat yuritmoqda.

O‘tgan davr davomida Markaz mamlakatimizda davlat tili siyosatini ta‘minlovchi mustaqil tashkilot sifatida shakllandi, o‘z faoliyatini asta-sekinlik bilan yo‘lga qo‘ydi. Albatta, yangi tashkilotning birdaniga oyoqqa turib ketishi, ish faoliyatini bir maromga solish qiyin masala. Buning uchun vaqt, qolaversa, juda katta mehnat talab qilinadi.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SISTEM-STRUKTUR TALQINLAR, ULARNING METODOLOGIK, GRAMMATIK AHAMIYATI

Abdullayev JUMANAZAR*

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek sistem tilshunosligining yuzaga kelishdagi obyektiv va subyektiv omillar, sistem talqinlarning o‘ziga xos tomonlari, erishgan yutuqlari, metodologik, grammatik aspektdagi ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan. Asosiy e’tibor grammatik birliklarning an’anaviy-analitik tavsiflardan farqlari, afzallik tomonlariga qaratilib, sistem tilshunoslikning tilga munosabatda dialektika qonunlariga ongillik va izchillik asosida munosabatda bo‘lishi va buning natijasida tilda tajalli topgan mohiyat va hodisani, sabab va oqibatni, imkoniyat va voqelikni, umumiylik (invariant) va xususiylik(variantni)ni farqlagani, shu sabab ushbu tilshunoslikda tilga lison va nutqning dialektik birligidan iborat dual funksional sistema sifatida qaralishi, til birliklarining bevosita kuzatishda berilgan, yuza, tashqi-zohiriy va bevosita kuzatishda berilmagan, ichki, botiniy, imkoniy belgi-xususiyatlari aniq ajratilib, ilmiy asosda tavsiflangani, bu o‘ta muhim metodologik asosning esa til birliklarining turfa xil sistemaviy sintagmatik(valentlik), paradigmatic-assotsiativ munosabatlari aniq va izchil yoritilishi evaziga yaratilgani yangicha ilmiy ta’limot sifatida e’tirof etilgan.

Kalit so‘zlar: til sistemasi, lison va nutqning dialektik birligi, dual funksional sistema, kesimlik(predikativlik) kategoriyasi, grammatik, semantik-funksional shakllanganlik, bo‘lakning bo‘lagi, funksional va nofunksional gap bo‘laklari, graduonimiya, giponimiya, partonimiya, mazmuniy maydon.

The System-Structural Interpretations in Uzbek Linguistics and Their Methodological and Grammatical Significance

Abstract

The article discusses the objective and subjective factors of the development of Uzbek systemic linguistics, its features, achievements, reveals their scientific and practical significance in the methodological and grammatical aspect of this Regulation. The main attention is paid to differences in system-structural interpretations from ordinary – traditional-analytical characteristics, advantages, their conscious and consistent approach to the laws of dialectics in relation to language and, as a result, determining the essence and phenomenon, causes and consequences, possibilities and reality, community. (invariant) and property (variant), in connection with which, in this linguistics, language is considered as a dual functional system,

* Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Guliston davlat universiteti, j.abdullayev@mail.ru

consisting of a dialectical unit of language and speech, units of language set during direct observation, superficial, externally and not set during direct observation, with a clear identification of internal, systematic syntagmatic description of various language units of this most important methodological basis.(valence), paradigm-associative relationships created on the basis of clear and consistent disclosure are recognized as a new scientific teaching.

Keywords: language system, dialectical unit of language and speech, dual functional system, cut category (predictivity), grammatical, semantic-functional education, section fragment, fragments of functional and non-functional expressions, graduonymy, hyponymy, partonymy, semantic field.

Mustaqillik sharofati bilan o'tgan asrning 90-yillarida xalqimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha jabhasida bo'lganidek, til ilmi va til ta'limida ham tub burilish yuz berdi: har ikki sohada tarixda ilk bor erkin fikr yuritish, mustaqil faoliyat ko'rsatish imkoniyati tug'ilib, milliy tilshunoslik, milliy til ta'limi tizimini yaratish zarurati paydo bo'ldi. Bu, shubhasiz, sharaflari ham o'ta mas'uliyatli vazifa edi.

Yuzaga kelgan vaziyat, tilshunosligimizning o'sha davrdagi taraqqiyot bosqichi bu vazifani tilni o'zaro bog'liq va shartlangan elementlardan tashkil topgan, ikki xil tabiiy va bir xil shartli mavjudlik holatiga ega bo'lgan butunlik – harakatdagi dual funksional 112system112 sifatida tadqiq va talqin qilish bilan amalga oshirishni taqozo qildi. Konkret holda bu qator zabardast til mutaxassislarining avval til va nutqni, keyinroq esa lison va nutqni farqlab, ularning har birining tashkil etuvchilari, ularga oid birliklarning mohiyati, ma'no-vazifasini o'zi mansub, undan yuqori va quyi sath birliklari bilan bo'lgan 112system-struktur (112system112c112tic, sintagmatik, iyerarxik) munosabatlarini ochish orqali aniq belgilagan holda talqin qilishga, til o'qitish mazmunini ham shu asosda o'zgartirishga, bir so'z bilan, o'zbek tilshunosligi va ona tili ta'limi mazmuni va shaklini milliy mustaqillik zaminida 112system-struktur yondashuv asosida yangilashga astoydil kirishganlarida namoyon bo'ldi. Harakat 60-70-yillardagi kabi ayrim masala-mavzular yoki umumiy tilshunoslik asoslari bo'yicha (Иванов, 1959, 1969; Усмонов, 1964.) emas, balki butun “keng front” bo'ylab, hozirgi o'zbek tilining bor mavjudlik holatlari, yashash formalari, sathlari va ularga oid birliklar, hodisalar, qonuniyatlar doirasida, ona tili o'qitishning butun nazariy, amaliy-metodik asoslari bo'yicha olib borildi.

Butun diqqat-e'tiborning ana shu maqsadni ro'yobga chiqarishga qaratilgani o'z mevasini berdi: har ikki sohada, ayniqsa, tilshunoslik borasida o'z davri uchun muhim bo'lgan, e'tirof va e'tiborga loyiq va e'tirof etilgan qator salmoqli ishlar (Adabiyotlar ro'yxatiga qarang.) amalga oshirildi. Tilshunosligimiz va ona tili ta'limi mazmuni ilk bor o'quvchiga mustaqillik g'oyalari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan yangicha nuqtayi nazar, qarashlar, tadqiq

tamoyillari, struktur metod va usullar, ma'lumot-materiallar bilan boyitildi, shularga asoslangan yangi davlat talablari, DTS ishlab chiqildi, zamon talablari asosida yildan yilga takomillashtirib borildi. 2017-2018-o'quv yilidan boshlab ona tili ta'limi jarayoniga tatbiq etilgan kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan DTSning mazmun-mohiyatida ham 113system-struktur qarashlar o'z ifodasini topgan. Zotan, tilning, til birliklarining 113system-struktur tilshunoslik qonun-qoidalari, tamoyillari asosida talqin qilinishi va o'qitilishi, birinchi galda, shaxsning lingvistik kompetensiyasi, tildan foydalanish layoqatini o'quvchi-talabani mustaqil, ijodiy fikrlashini rivojlantirish asosida shakllantirishni ko'zda tutadi. Shuning uchun uning o'zlashtirilishi, 113system-struktur g'oyalar, tushuncha va tamoyillar asosida fikr yuritish bizning hayotiy bilimlarimiz, tushunchalarimizga ham jiddiy va ijobiy ta'sir qiladi, ularni yangicha qarashlar, ilmiy-metodologik asoslar bilan boyitadi, nafaqat lingvistik, balki boshqa tayanch kompetensiyalarning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Zero, 113system-struktur tilshunoslik tilga shaxsning rivojlanishi uchun muhim bo'lgan omil – har bir shaxsning ichki lisoniy imkoniyat-boyligi va ana shu imkoniyat-boylikdan foydalanib, fikrni shakllantirish va ifodalash jarayonidan iborat doimiy harakatdagi ongli lisoniy, fikriy-nutqiy jarayon, harakatdagi tafakkur-til mexanizmi sifatida qaraydi va tilni tadqiq-talqin qilishda dialektika qonunlariga ongliklik va izchillik tamoyillariga qat'iy rioya qilgan holda ish ko'radi: 113yste tajalli topgan mohiyat va hodisani, sabab va oqibatni, imkoniyat va voqelikni, umumiylik (invariant) va xususiylik(variant)ni farqlaydi; asosiy e'tiborini tilning lisoniy va nutqiy holatini, ularni tashkil qiluvchi birliklarni, xususan, til birliklarining mohiyati, umumiy ma'no-vazifasini aniq belgilashga; ularning bevosita kuzatishda berilgan, yuza, zohiriy va bevosita kuzatishda berilmagan, ichki, botiniy belgi-xususiyatlarni ajratishga, tilning lisoniy va nutqiy birliklari va hodisalari, qonun-qoidalarini aralashtirib, chalkashtirib yubormaslikka; lingvistik mohiyatning til birliklarining ichki, yashirin belgi-xususiyatlari, ularning esa til birliklarining turli munosabatlarini aniqlash bilan belgilanishiga qaratadi. Shu sababli u yildan yilga mohiyatga – tilning ichki, yashirin substansiyasiga yaqinlashib boraveradi.

Nazarimizda, 113system-struktur yondashuvning mohiyati ham, bilishning mohiyati ham shunda. Binobarin, o'zbek tilshunosligining 70 yillik an'anaviy-analitik tadqiq bosqichidan 90-yillarda sistemaviy-struktur(sintetik) tadqiq bosqichiga ko'tarilgani nafaqat ijtimoiy hayot, balki dialektika va tafakkur taraqqiyoti qonunlari bilan ham belgilangandir.

Yuqoridagilar nisbatan qisqa muddatda o'zbek tilshunosligi va ona tili – hozirgi adabiy o'zbek tili ta'limida o'sha paytda amalda bo'lgan(mavjud) mustabid sovet tuzumi mafkurasi 113system tilshunosligi qoliplariga solingan an'anaviy analitik-tavsifiy tilshunoslik va til ta'limi bag'rida uning yutuqlariga tayanuvchi, ammo mohiyatan ulardan tubdan farq qiluvchi yangicha nuqtayi nazar, metodologik-

metodik asosli talqinlar, yangicha ona tili o'qitish tizimi yuzaga kelgani va tez orada yetakchilikni ham qo'lga olib, 114system-struktur tilshunoslik ta'limoti va sistemaviy o'qitish texnologiyasi maqomida faoliyat yurita boshlaganini tasdiqlaydi. 2000-yillardan boshlab bu ta'limotning zamonaviy tilshunoslik va ona tili ta'limi sifatida uzluksiz ta'lim tizimining deyarli barcha bosqichlariga kirib borgani va muntazam o'qitila boshlagani, bu jarayonning o'sha yillardagidek bo'lmasa-da, hozirgi kunda ham davom etayotgani quruq gap emas, bor haqiqatdir.

Shunga ko'ra, bizningcha, o'zbek 114system-struktur tilshunosligi o'z vaqtida vujudga kelganini, mustaqil ta'limot darajasiga ko'tarilganini, uning qator yangicha qarashlari, o'ziga xos talqinlarini o'zbek tilshunosligining 90-yillardan 114system 20-yilida erishgan yutuqlari sifatida qayd etmaslik va qabul qilmaslik adolatdan bo'lmaydi. Har xil ziddiyatlar, qarama-qarshi holatlarga, ba'zi salbiy oqibatlariga qaramay, u o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsad-muddaosiga yetdi, ijtimoiy qiyin sharoitda xalqaro maydonda ham tan olingan dastlabki o'zbek tilshunoslik maktabini yaratishga muvaffaq bo'ldi, yechilmay kelayotgan bir qancha dolzarb ilmiy-nazariy, ta'limiy muammolarni ijobiy hal qilishga erishdi. Eng muhimi, rus tilshunosligi va 114system o'qitish qolipidagi lingvistik monopolizmga barham berib, o'zbek tilshunosligi va ona tili ta'limida bir vaqtning o'zida har xil, kerak bo'lsa zid, bir-birini inkor qiluvchi o'ziga xos milliy-shaxsiy qarashlar, talqinlar, o'qitish shakl, usullarining mavjud bo'lishga, yashashga haqli ekanligini, fan va ta'lim shundagina taraqqiy etib, takomillasha, muvofiqlasha borishi va zamon talablariga javob bera olishini ko'rsatdi, amalda isbotladi; o'zbek tilining turkona tabiatiga mos ayrim o'ziga xosliklarni kashf qildi; fanimizning va fanimizni o'qitishning yaqin kelajakdagi bir qancha istiqbolli yo'nalishlarini belgilab berdi.

Quyidagilar o'zbek 114system-struktur tilshunosligining metodologik va grammatik aspekti bilan bog'liq yutuqlari, ilmiy-amaliy, ta'limiy ahamiyati, o'ziga xos afzallik tomonlarining yanada aniqroq asosi, ishonarli dalil-isboti bo'lib xizmat qiladi, deb o'ylaymiz:

1. Sistem-struktur tilshunoslik o'zbek tilshunosligida ilk bor jiddiy ravishda "...tadqiq manbayi haqida ilmiy-nazariy hukm chiqarish jarayonida dialektik gnoseologiya, jumladan, dialektik-logik kategoriyalardan onglilik va izchillik bilan foydalanish – metodologiya masalalarini o'rta qo'ydi" (Qurbonova, 2002, 5-b.), aniq va izchil ilmiy tadqiq tamoyillari, metodlarini ishlab chiqdi va ularning afzalliklarini ko'psonli ilmiy tadqiqotlari misolida ko'rsata oldi. Bu ta'limotda til birligining umumiy ma'no-vazifasini aniqlash va belgilash tayanch nuqta hisoblanadi va bu mohiyat uning sistemaviy sifatlari va munosabatlari jamidan axtariladi. Shuning uchun 114system-struktur tilshunoslikda nutqiy ma'no va vazifalar tasodifiy, sof kontekstual hodisa sanalмай, til birligining mohiyatiga oid ma'lum imkoniyatlar (lisoniy umumiy ma'nolar)ning voqelanishi hisobanib, qat'iy qonuniyatlar asosida

talqin qilinadi (Qurbonova, 2002, 5-b.). Bu qonuniyatlar tilning bevosita kuzatishda berilmagan, psixik muhr, akustik obraz (F.de Sossyur ta'birlari) holatdagi lisoniy tomonini (lisoniy tilni) tashkil etuvchi paradigmalarining o'zaro pog'onali butunlik hosil qilishida hamda bu paradigmalardagi birliklardan zarurlarining tafakkur jarayonida real nutqiy vaziyat talabiga ko'ra harakatga keltirilib, faollashtirilib, doimiy ravishda fikrni shakllantiruvchi turli xil gaplarni hosil qilish va ifodalashga jalb etib turilishida va buning natijasida uzluksiz ravishda nutq deb atalgan fikriy mazmunli sintagmatik lingvistik tuzilmaning vujudga kelib turishida o'z ifodasini topishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Oqibatda tilni hamma uchun umumiy va majburiy bo'lgan, tayyor holdagi lison va uning turli shaxslarning fikr-munosabatlarini shakllantirish va ifodalashga jalb etilishi natijasida yuzaga keladigan nutqning dialektik birligidan iborat ikki xil tabiiy va bir xil shartli mavjudlik holatiga ega dual funksional 115system115 sifatida tushunish va talqin qilish imkoniyati yaratildi.

Tilni bunday tushunish va talqin qilish obyektiv haqiqatga yaqin bo'lib, uni doimiy harakat-faoliyatdagi murakkab ongli ijtimoiy-individual mexanizm ekanligini kashf qilishga xizmat qildi va qilmoqda. Keyingi yillarda yuzaga kelgan yangi yo'nalishlar buning yaqqol isboti. Ularning ko'pchiligi 115system-struktur tilshunoslik g'oyalari, metodologik asosi, tadqiq tamoyillari, metod-usullari asosida, ularga tayanib ish ko'rish natijasida yuzaga kelganini inkor qilib bo'lmaydi (Hech bo'lmaganda, u katalizatorlik vazifasini o'tagan). Jumladan, 115system yillarda shakllangan antropolingvistikaning asosida ham shaxsning til imkoniyati, boyligidan o'z dunyoqarashi, ma'naviyati-madaniyati, bilim-saviyasi, ruhiy holati, kayfiyatiga ko'ra turli maqsad-muddaolarini ifodalash maqsadida foydalanishi va buning natijasida nutqda tajalli topadigan individual-antroponimik belgi-xususiyatlar, ta'bir joiz bo'lsa, antroponemalar yotadi.

2. Bosh lingvistik antinomiya yoki dixotomiya – lison va nutqning (lisoniy til va nutqiy til) ilmiy farqlanishi asosida fonema va tovush, so'z, leksema va so'zshakl, lisoniy qolip va yasalgan so'z, so'zshakl, so'z birikmasi, gap, qo'shma gap (aslida gaplar birikmasi), tekstema va supersintaktik butunlik(matn), lisoniy birliklar va nutqiy birliklar, nutq birliklari ajratildi va ularning mavjudligi, faoliyat ko'rsatishi o'zaro bog'liq va shartlangan, ammo har biri o'ziga xos tabiatli ikki xil hodisaning doimiy aylanuvchan-o'tishli harakati sifatida talqin qilindi. Bugun lisoniy va nutqiy, nutq birliklarining tilning ikki xil mavjudlik holatiga taalluqli farqli hodisalar ekanligi ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan lingvistik haqiqatlardir. E'tirof etmagan ozchilik narsaning mohiyati uning o'zi, o'ziga o'xshash va o'ziga o'xshamagan, o'zidan boshqa, undan yuqori va quyi birliklar bilan bo'lgan sistemaviy munosabatlarini aniqlash va umumlashtirib belgilash orqali ochilishini e'tibordan chetda qoldiradilar. Vaholanki, mohiyat doim umumiy, yashirin, bevosita kuzatishda berilmagan bo'ladi,

alohidaliklar-xususiylıklar orqali namoyon bo'lsa-da, ayni ular bilan yopib-to'sib qo'yilgan bo'ladi. Shuning uchun ular maxsus so'z-terminlar bilan nomlanadi va ta'riflanadi, modellashtiriladi, shartli, ramziy ifodalar bilan belgilanib, sharhlanadi, ilmiy izoh, asosga muhtoj bo'ladi.

3. Tilga 116system(-struktur) yondashuv, ayniqsa, o'zbek tili sintaksisida uzoq yillardan beri munozarali bo'lib kelayotgan eng dolzarb muammo – gapni gap qilib turgan asosiy narsa nima ekanligi to'g'risida, nihoyat, qat'iy qarorga kelinishida muhim rol o'ynadi: bu narsaning predikativlik (kesimlik)kategoriyasi bilan shakllangan kesim ekanligi yangicha qarashlar bilan ilmiy asoslab berildi. Uning 116system116c-funksional yo'nalishda gapning grammatik asosi masalasi qat'iy ravishda kesim foydasiga hal qilinib: “O'zida predikativlikni aks ettiradigan, gapni uyushtiruvchi va shakllantiruvchi markaziy bo'lak kesimdir. Kesim gapning markaziy bo'lagi bo'lganligidan gapning butun tavsifi – grammatik kategoriyalari: tasdiq-inkor, shaxs-(personallik), zamon(temporallik), kommunikativ maqsad va hokazolar kesimga qarab belgilanadi. ...Ega ham kesimning subyekt valentligini to'ldiruvchi bo'lak – gap tuzilishini kengaytiruvchi hisoblanadi. Kesim predikativ shaklga ega bo'lgani uchun u gapda nisbatan emas, balki bevosita belgilanadi” (Mahmudov, Nurmonov,1995, 67-b.) degan qarash ilgari surilgan bo'lsa, formal-funksional yo'nalishda ham kesim: “Tasdiq-inkor, modallik-mayl, zamon, shaxs-son ma'nolarini (ya'ni kesimlik kategoriyasi ([Pm]))ni o'zida mujassamlashtiruvchi bo'lak, gapning markazi” (Qurbonova, 2001, 30-b.) hisoblanadi, ega esa “...kesimlik kategoriyasi tarkibidagi shaxs-son ma'nosini muayyanlashtiruvchi bo'lak”dir. (Qurbonova, 2002, 37-40-b.) Gapning va gap bo'laklarining bunday yangicha talqinlariga gapga o'zbek tilshunosligida birinchi marta “Kesimlik kategoriyasi bilan shakllangan atov birligi va unga qo'shib kelgan tobe so'zlar tizimi (ya'ni [WPm])” (Nigmatov, Abdullayev, Banaru, Maxmudov, Muhammedova, Nurmonov,1984,3-10-b.) degan grammatik ta'rif berilgani muhim nazariy-metodologik asos bo'ldi.

Тенбер та'limoti (Тенбер, 1988, 656 c.) asosida o'zbek 116system-struktur tilshunosligining 116system116c-funksional va formal-funksional yo'nalishlari ishlab chiqqan mazkur bir cho'qqili gap va kesimlik (predikativlik) kategoriyasi nazariyasiga tayanib aytish mumkinki, ushbu kategoriya bilan shakllangan nafaqat atov birliklari, balki shunday kategoriya bilan shakllanish imkoniyatiga ega bo'lgan xohlagan til birligida tegishli nutq vaziyatida predikativlik belgisi – voqelik bilan bevosita bog'lanuvchi fikriy mazmun anglatish – fikr ifodalash imkoniyati yuzaga keladi.

4. Sistem-struktur tilshunoslik ishlab chiqqan gap nazariyasida kesimlik kategoriyasi asosiy o'rin tutadi. Zero, gapni gap qilib turgan narsa kesim bo'lsa, kesimni kesim qilib turgan narsa kesimlik kategoriyasidir. Bunga gapdan kesimni, kesimdan esa kesimlik kategoriyasini olib tashlash bilan to'la ishonch hosil qilish

mumkin. Kesim bo'lmasa, gap, kesimlik kategoriyasi bo'lmasa, kesim shakllanmaydi.

Ayni o'rinda shu narsa alohida ta'kidlashga loyiqki, 117ystem-struktur yondashuv asosida talqin qilingan kesim va kesimlik (predikativlik) kategoriyasi nafaqat gapning, balki gap bo'laklarining va qo'shma gaplarning maqomi, mavqeyini avvalgiga qaraganda obyektivroq, aniqroq belgilash, chegaralash imkoniyatini berganligi ham bor gap bo'lib, gapning shakllanishi, sintaktik tuzilishi, tashkil etuvchilarini to'g'ri aniqlash mexanizmi, mezon, nazariy-metodologik asos vazifasini ham o'tadi va o'tamoqda. Bunga ko'ra kesimdagi kategorial ma'nolar (tasdiq-inkor, mayl-modallik, zamon, shaxs-son) ga bevosita bog'lanib, ularni muayyanlashtirib keladigan nutqiy birliklar gap bo'lagi, bunday xususiyatga ega bo'lmaganlar gap bo'lagi hisoblanmaydi (gap bo'lagining bo'lagi bo'ladi). Yana shunisi ham e'tibor va e'tirofga loyiq: bevosita kesimlik kategoriyasiga bog'lanmasa, ega + kesim modelidagi predikativ sintagmalar ham, hol va to'ldiruvchilar ham ajralmas birikmalar tarkibida bo'lakning bo'lagi maqomida bo'ladi. Semantik-funksionalchilar talqiniga ko'ra bunday holatlarda ular nofunktional ega, nofunktional kesim, nofunktional hol, nofunktional to'ldiruvchi hisoblanadi. Demak, kesimlik kategoriyasi funksional va nofunktional gap bo'laklarini farqlash uchun ham mezon vazifasini o'taydi (Mahmudov, 1981, 46-b.; Mahmudov, Nurmonov, 1995; Raupova, 1999). Shu o'rinda bo'lakning bo'lagi maqomi o'zbek tilshunosligida dastlab professor Sh. Rahmatullayev (Raxmatullayev, 1968, №6, 34-b.) tomonidan kashf qilinganini aytib o'tish joiz, deb o'ylaymiz. Olimning o'z versiyasidagi 117ystem tilshunoslik ta'limotida gapning 117ystem talqini ham o'rin olgan. Biroq uning talqinidagi 117ystem sintaksis ikki cho'qqili nazariyani ham, bir cho'qqili nazariyani ham o'z ichiga oladi. Olim gap avvalboshdan ikki cho'qqili bo'lgan, bir cho'qqililik keyinchalik paydo bo'lgan, degan fikrda (Rahmatullayev, 2006, 285- b.).

Sistem-struktur tilshunoslik fonemika-fonetika, leksemika, frazemika, uslubiyat fanlari nazariysi taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shgan (Adabiyotlar ro'yxatiga qarang). Biroq, bizningcha, uning yuqorida guvohi bo'lganimiz o'zbek tilshunosligining metodologik asoslari va grammatikasi muammoli masalalarini ijobiy hal qilishdagi o'rni va roli alohida e'tibor va e'tirofga loyiq ustuvor ahamiyatga molikdir. Shundan kelib chiqib ta'kidlanganlarning o'zi asosida ham aytish mumkinki, 117ystem tilshunoslik ta'limotini o'rganish, mohiyatini tushunishga harakat qilish, yutuqlarini, e'tiborga loyiq tomonlarini alohida qayd etib, ta'kidlash, o'zlashtirish, o'qitish, o'quvchi-tabalar ongiga singdirish, o'z navbatida, uning ba'zi zaif tomonlariga, kamchiliklariga ham diqqatni jalb qilib (Hojiyev, 2005, 46-50-b.; 2010, 5-17-b.; Tojiyev, 2004, 35-39-b.; 2005, 53-b.; 2008, 30-37-b.) ilmiy asosda ko'rsatib berish, zarur topsak, qo'limizdan kelsa, akademik A. Hojiyev boshlagan

ishni davom ettirib, mazmun-mohiyati, ilmiy saviyasi undan yuqoriroq milliy tilshunoslik ta'limoti yaratish yo'lidan bormog'imiz maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Абдуазизов А.А. (1992). *Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси*. Ўқитувчи.
- Абузалова М. (1994). *Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши*. НД.
- Абдусаматов Р. (1994). *Ўзбек тилида гап бўлақларининг ноамалий мавқеи масаласи*. НД.
- Бозоров О. (1997). *Ўзбек тилида даражаланиш* ДД.
- Иванов С.Н. (1959). *Очерки по синтаксису узбекского языка*. Издательство ЛГУ.
- Махмудов Н., Нурмонов А. (1995). *Ўзбек тилининг назарий грамматикаси*. (Синтаксис). Ўқитувчи.
- Махмудов Н. (1981) Функционал ва нофункционал тўлдирувчилар ҳақида. *Ўзбек тили ва адабиёти*. Фан.
- Менглиев Б. (2002) *Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар*. ДД.
- Нигматов Х. и др. (1984). *Структура предложения: актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков, (тезисы формально-функционального исследования)*. Советская тюркология. №5.
- Неъматов Ҳ., Бозоров О. (1993). *Тил ва нутқ*. Ўқитувчи.
- Неъматов Ҳ., Расулов Р. (1995). *Ўзбек тили систем лексикология асослари*. Ўқитувчи.
- Неъматова Л. (2002). *Ўзбек тилида привативлик (нофонологик сатҳлар)*. НД
- Раҳматуллаев Ш. (1968). *Гапга, бирикмага доир баъзи тушунча ва терминлар*. Ўзбек тили ва адабиёти, Фан.
- Rahmatullayev SH. (2006). *Hozirgi adabiy o'zbek tili*.
- Раупова Л. (1999) *Ўзбек тилида номустакил кесим масаласи ва [WPm] қурилишли гаплар*. НД.
- Sayfullayeva R. va b. (2005). *Hozirgi o'zbek adabiy tili. (Fonetika-Leksikografiya)*. Talqin.
- Сайфуллаева Р.Р. (1994). *Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг формал-функционал талқини*. Фан.
- Сафарова Р. (1996). *Лексик – семантик муносабатнинг турлари*. Ўқитувчи.
- Собиров А. (2005). *Лексикани система сифатида ўрганиш масалалари*. Ўзбек тили ва адабиёти. Фан.
- Тожиев Ё. (2004). *Ўзбек тилишунослигидаги айрим муаммолар ҳақида*. Ўзбек тили ва адабиёти. Фан.